
XALQARO DO'STLIK KUNI TUMANIMIZDA KENG NISHONLANDI

Yurtimizda 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanmoqda. Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirish, sadoqat bilan bajarilgan mehnatni rag'batlantirish maqsadida joylarda sana munosabati bilan bayram tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Xususan, Toshloq tumanidagi Bo'ston MFYda ushbu kunga bag'ishlanib bayram tadbiri tashkil etildi. Aytish mumkinki, mahallada istiqomat qiluvchi qirg'iz millatiga mansub hamyurtlarimizning shu maskanni vatan qilganiga salkam yuz yil bo'libdi. Ular tinch totuvlikda hayot kechirib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mustaqillik yillarida millatlararo do'stlikni mustahkamlash, jamiyatimizda turli millat va elat vakillari o'rtasida uyushqoqlik va mehr-oqibat munosabatlarini saqlash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berilayotganligi, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashab O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilayotganliklarini ta'kidlab o'tdilar.

Bayram tadbirida san'atkorlar ijrosida do'stlikni, birdamlikni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar, go'zal raqslar namoyish etildi. Bu kabi tadbirlar jamiyatni, ayniqsa yoshlarni turli millatlar tili, madaniyati, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini asrash va hurmat qilishga undaydi, jahonda samimiy do'stlik g'oyalarini targ'ib qilish va tarannum etishga xizmat qiladi.

Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-08-02 17:49:14